

Xitoy tili iyerogliflarining kalitlar sistemasi

Ismailova Sedona Burxon qizi

Sichuan universiteti, lingvistika yo'nalishi magistri

Annotatsiya: ushbu maqolada xitoy tili iyerogliflari kalitlarining kelib chiqish tarixi, tuzilishi, rivojlanish va shakllanish jarayonlari, shuningdek, iyeroglif tarkibidagi o'rni haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: kalitlar, sodda va murakkab iyerogliflar, xitoy yozuvi

Kalitlar iyerogliflarning asosi hisoblanadi. Shunday savol tug'iladi, kalitlar qanday paydo bo'lgan va dastlab kim "kalit" terminini yaratgan? Xitoy Sharqiy Han davrining tilshunos olimi Xu Shen 许慎(milodiy 65-122-yillar) 9353 ta iyeroglifning birikishi, shakli va holatiga ko'ra turlarga ajratib chiqadi va barcha mavjud bo'lgan o'xshash iyerogliflar qismlarini va ma'nosi o'zaro yaqin aloqada bo'lgan murakkab iyerogliflarni bir turga kiritadi⁶⁸. Shunday qilib, 9353 iyeroglif 540 turga ajratiladi. Ular orasida har bir tur iyerogliflardan o'xshash holda birikkan qismini ham asos iyerogliflar deb ataydi, bu turdagi iyerogliflarni bosh o'ringa qo'yib, ularni kalitlar deb nomlaydi. Bu 540 ta kalitlardan foydalanib Xu Shen kichik muhrli yozuvda yozilgan "说文解字" (shuō wén jiě zì- iyeroglif va so'z izohi) deb nomlangan Xitoyning birinchi lug'atini yaratadi. Keyinchalik Janubiy sulola olimi Gu Ye Wang (顾野王 519-581) Xu Shenning uslubiga asoslanib boshqa bir iyerogliflar lug'atini tuzadi va bu lug'atni "玉篇" (yù piān-sof maqolalar) deb nomlaydi. Bu lug'atda jami 542 ta kalitlar ro'yhati kiritilgan. Min sulolasi davriga kelib, Mei Ying Zuo (梅膺祚) "字汇" (zì huì -iyerogliflar to'plami) deb nomlangan lug'atni yaratadi va 1615-yilda nashr qildiradi. Bu lug'atda olim kalitlarni 540 tadan 214 taga qisqartiradi. Keyinchalik Qing sulolasi davrida, 1710-yil chop etilgan Chen Dan Jingning(陈延敬) "康熙字典"(Kangxi lug'ati)da ham 214 ta kalit berilgan. Zamonaviy Xitoy tilshunoslari 214 ta kalitlarni tahlil qilishib, ular sonini 201 taga qisqartirdi. Bu 201 kalitlar sistemasi hozirgi

⁶⁸汉字部首教程/王平,沈禾玲,察真慧编著.-北京:北京大学出版社,2009年,3页.



davr Xitoy lugʻatlarida foydalaniladi. 2000-yilda Zamonaviy Xitoy lugʻati nashriyot uyi tomonidan nashr etilgan “标准汉语字典” (hànyǔ biāozhǔn zìdiǎn- standard xitoy tili lugʻati) 201 ta kalitni oʻz ichiga qamrab olgan. 2005-yil iyulda “Tijorat” nashriyoti tomonidan chop etilgan “现代汉语词典” (xiàndài hànyǔ cídiǎn- zamonaviy xitoy tili lugʻati)da ham 201 kalit kiritilgan. Shunday qilib, biz hozir oʻrganadigan kalitlar sistemasida 201ta kalit mavjud⁶⁹.

Xitoyda 400 yil mobaynida 214 ta kalitli belgilardan foydalanilgan. U bir vaqtning oʻzida iyeroglifikani oʻrganish va tahlil etish uchun asos va Xitoy lugʻatlari qoʻllanmalarida iyeroglif izlash universal belgilar roʻyhati boʻlib xizmat qildi. 1964-yil XXX iyerogliflarni soddalashtirish dasturi keng amalga oshirilishi natijasida 214 ta kalitli belgilar roʻyhati qisqartirildi, negaki, uning alohida belgilari qisman soddalashtirildi hattoki struktur jihatdan ham oʻzgarishga uchradi. 长- cháng uzun, katta (yosh yoki mansabga nisbatan), 齐qí tekis-bir xil.

Shundan keyin deyarli barcha Xitoy tilidagi lugʻatlarda soʻz boyligiga mos ravishda iyeroglifik kalitlar varianti bilan berila boshladi. Shu bilan birga qoidaga binoan belgilar miqdoriga koʻra bunday roʻyhatlar kichikroq boʻlgan, ammo tahlil metodikasi va iyeroglif tarkibini tasvirlab berish boʻyicha 214 ta kalit asos qilib olingan avvalgi prinsipni meros qilib oldi. Tabiiyki, faqatgina soddalashtirilgan iyerogliflar uchun ishlab chiqilgan “mukammallashtirish” umum qabul qilingan universal kalitlar roʻyhati paydo boʻlishiga toʻsqinlik qildi.

Bundan tashqari yangi kalitlar roʻyhatining yangi variantini qoʻllash qoidaga binoan soddalashtirilgan yozuvdagi iyerogliflar bilan cheklanib qoladi. Katta yoki maxsus asarlar shuningdek, toʻliq iyerogliflar bilan yozilgan matnlar kerakli boʻlgan belgi yoki soʻzni izlashga qiyinchilik tugʻdiradi. Bunday tahlilning aksi sifatida soddalashtirilgan yozuvda yozilgan deyarli barcha iyerogliflarni anʼanaviy roʻyhat asosida olib borish mumkin. Bu

⁶⁹ . 汉字部首教程 / 王平, 沈禾玲, 蔡真慧编著. - 北京: 北京大学出版社, 2009年, 4页.




nafaqat uning ma'nosini anglatadi, balki xitoy yozuvining barcha turlarida ishlash davomida 214 ta kalitning universal ekanligini isbotlaydi⁷⁰.

Bundan ko'rinib turibdiki, 214 ta kalitning an'anaviy ro'yhati ham yangi, ham qadimgi iyerogliflardan, har qanday xitoy lug'ati va qo'llanmalarida an'anaviy va yangi iyeroglif kalitlari indekslaridan foydalanishga imkon beradi.


Biz hozir foydalanayotgan kalitlarning katta qismi qadimda paydo bo'lgan bo'lsa ham, ammo qadimgi davr yozilish uslubi va zamonaviy yozuv uslubidan katta farq qiladi. Xitoy tarixining turli bosqichlarida yozuv sistemasiga turlicha o'zgartirishlar kiritilganligi sababli, kalitlarning yozilish shakli ham o'zgarib boshlagan. Iyeroglif kalitlarining shakliy o'zgarishini quyidagi besh bosqichga bo'lish mumkin:

甲骨文(jiǎgǔwén)-toshbaqa suyaklaridagi bitiklar, 金文(jīn wén)-bronz idishlaridagi bitiklar, 小篆(xiǎo zhuàn)- kichik muhri iyeroglif yozuvlar, 隶书(lì shū)-rasmiy yozuv, 楷书(kǎi shū)-standartlashtirilgan (me'yoriy) yozuv⁷¹. Yuqoridagi birinchi uch uslub, ya'ni 甲骨文, 金文, 小篆 birgalikda qadimiy yozuv bosqichi deb ataladi. Garchi ularning shaklida o'zgarishlar bo'lsa-da, ammo hali ham nisbatan piktografik xususiyatlarini saqlab qolgan. 隶书 va 楷书 esa yozuvning zamonaviy bosqichi deb ataladi. Ushbu ikki yozuv uslubida kalitlar chiziqlari egri bo'lib qayrilmasdan, balki to'g'ri shaklga aylangan. Shu sababli zamonaviy xitoy iyerogliflari piktografik yozuv emas, balki, chiziqlar (笔画), kalitlat (部首) va yon bo'laklar (偏旁)dan tashkil topgan mavhum belgilar sistemasi. Misol sifatida 目 mù kalitining tarixiy rivojlanish shakllarini ko'rib chiqamiz⁷². (1- ilovaga qarang)

甲骨文 (toshbaqa kosalaridagi yozuv)-



金文 (bronz idishlaridagi yozuv)-




⁷⁰ Кондрашевский А.Ф. Практический курс китайского языка. Пособие по иероглифике. Часть I.-М.: ИД «Муравей», ;2000. стр.12

⁷¹ О.В. Климова. История письма. Екатеринбург, 2009- стр.99

⁷² 汉字部首教程 / 王平, 沈禾玲, 蔡真慧编著.- 北京: 北京大学出版社, 2009年-3页

小篆 (kichik muhrli yozuv)-  

隶书(rasmiy yozuv) - 

楷书 (hozirgi yozuv)- 目

Dastlabki iyeroglif ko‘z shakliga o‘xshasa ham, ammo piktogrammalar borgan sari mavhumlashib, hozirda uning asl ma’nosini taxmin qilish mushkul.

Kalitlar murakkab iyeroglif yasaganda, ularning iyeroglifdagi joylashuv o‘rni turlicha bo‘lganligi sababli, odatda turli xil yozuv uslubiga ega. Iyeroglif yasash jarayonida shakliy o‘zgarishlarga uchramasdan, asl shaklini saqlab qolgan kalitlar “turg‘un(standard) kalitlar”, o‘zgarishga uchragan kalitlar esa “o‘zgaruvchan kalitlar” deb ataladi. Turg‘un va o‘zgaruvchan kalitlar bir-biridan faqat shakl jihatdan farq qiladi, o‘qilishi va ma’nosi butunlay bir xil. Masalan, 犬 *quǎn* standard kalit hisoblanadi, yasalgan iyeroglifdagi shakli 哭 *kū* ; 犭 esa 犬 *quan* kalitining o‘zgargan ko‘rinishi, yani o‘zgaruvchan kalit hisoblanadi. Misol qilib 狗 iyeroglifini keltirish mumkin. Xuddi shu kabi 心 *xīn* kaliti standard kalit bo‘lib iyeroglif hosil qilganda shaklini o‘zgartirmaydi, masalan, “思” *sī* ; 心 *xīn* kalitining ikkita o‘zgaruvchan ko‘rinishi bor- 忄 va 忄 . 忄 odatda iyeroglif yon qismida ishlatiladi, masalan, “情” *qíng* ; 忄 shakli esa iyeroglif pastki qismida joylashadi- “慕” *mù* . Ammo shuni ham ta’kidlab o‘tish joizki, ba’zi kalitlarning o‘zgaruvchan shakllari mavjud emas.

XX asrning 50-yillarida Xitoy hukumati iyerogliflarni soddalashtirish harakatlarini olib bordi. Xitoy iyerogliflarining soddalashishi bilan bir qatorda ba’zi kalitlar ham sodda shaklga o‘zgardi. Misol sifatida murakkab iyeroglif 餅 *bǐng* ning soddalashgan ko‘rinishi 饼 *bǐng*. Bunda biz, iyeroglifning chap tomonidagi murakkab kalit 饣 ni soddalashgan 饣 shaklida yozilganini ko‘rishimiz mumkin⁷³.

Yangi o‘rgangan iyerogliflarni eslab qolishda kalitlardan unumli foydalanish orqali kalitning asosiy va kengaygan ma’nolarini o‘rganish muhim. Kalitning kengaygan

⁷³汉字部首教程 / 王平, 沈永玲, 蔡真慧编著. - 北京: 北京大学出版社, 2009年-7页。



ma'nosini tushunib olish ushbu kalit bilan birikkan iyeroglif , so'z yoki so'z birikmasi ma'nosini tahlil qila olishga va oson yodda saqlab qolishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Кондрашевский А.Ф. Практический курс китайского языка. Пособие по иероглифике. Часть I.-М.: ИД «Муравей», 2000 г. - 152 с.
2. Климова О.В. История письма. «Уральский государственный технический университет – УПИ имени первого Президента России Б.Н. Ельцина». Екатеринбург. 2009 г.
3. Софронов С.А.Китайский язык и китайская письменность. М.: Наука. 2006 г. 678 с.
4. Мыщик А.П. «214 ключевых иероглифов в картинках с комментариями».СПб.: КАРО, 2007. — 240 с
5. 王平, 沈禾玲, 察真慧编著. 汉字部首教程/- 北京: 北京大学出版社, 2009年。— 223页。
6. 黄伟嘉, 敖群. 汉字部首例解. 商务印书馆出版. 北京2013年。